

Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar vauning samaradorligi

Ilmiy rahbar: Djumaniyozova Maryamjon

Urdpi “Milliy g`oya va falsafa”

Kafedra o`qituvchisi

Raimbergenova Farangiz Mansur qizi

Urdpi “Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va
huquq ta`limi” yo`nalishi 1-bosqich talabasi.

+99894-201-80-44

farangizreimbergenova2@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada korrupsiya berish, korrupsiya olish, korrupsiya berishda va olishda vositachilik qilgan fuqarolarning qilgan xatolari va uning oqibatlari to`g`risida, shu bilan birga korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar va uning samaradorligi to`g`risida fikr yuritiladi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются ошибки и последствия дачи взятки, получения взятки, посредничества в даче и получении взятки, а также антикоррупционные Меры и эффективность

ANNOTATION

This article discusses the mistakes and consequences of giving corruption, receiving corruption, Mediating in giving and receiving corruption, as well as anti-corruption measures and their effectiveness.

Kalit so`zlar: fuqaro, kodeks, korrupsiya, jinoyat, ta`lim, tarbiya, din, tarix.

Ключевые слова: гражданин, кодекс, коррупция, преступность, воспитание, религия, история.

Key words: citizen, code, corruption, crime, education, upbringing, religion, history.

Korrupsiya jamiyatning rivojlanishiga to`sqinlik qiluvchi asosiy muammolardan biridir.

U davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta`lim va sog`liqni saqlash sohalarida chuqur ildiz otishi mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo`yicha xalqaro va

milliy darajadagi chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo`lib, ularning samaradorligi turli omillarga bog`liq. Ushbu maqolada korrupsiyaning tarixi, oqibatlari, hamda unga qarshi samarali kurashish yo`llari haqida so`z yuritamiz. Korrupsiya bu- mansab yoki vakolatidan shaxsiy manfaat yo`lida noqonuniy foydalanish, pora olish yoki pora berish, o`zaro manfaatdorlik asosida noqonuniy qarorlar qabul qilish kabi harakatlar majmuasidir. Bu holat davlat idoralarida, biznes sohasida yoki har qanday tashkilotda sodir bo`lishi mumkin. Korrupsiya natijasida jamiyatda adolatsizlik kuchayadi, iqtisodiy taraqqiyot sekinlashadi va davlat resurslari samarasiz sarflanadi.

Korrupsiya qadimgi davrlardan beri mavjud bo`lib, tarixiy manbalarda Rim imperiyasidan tortib Xitoyning qadimgi sulolalarigacha, Yevropa va Osiyo davlatlarida korrupsiya holatlari qayd etilgan. Masalan, Qadimgi Rimda davlat mansabdor shaxslarning pora evaziga ish bitirishi keng tarqalgan bo`lsa, Xitoyda “Konfutsiy” davrida axloqiy qadriyatlar orqali korrupsiyaga qarshi kurash olib borilgan. O`rta asrlarda esa ko`plab davlatlarda amaldorlarning korrupsion xatti-harakatlari jinoiy jazolar bilan taqiqlangan. Hozirgi zamon dunyosida korrupsiya rivojlanayotgan mamlakatlar uchun katta muammo bo`lib, u iqtisodiy taraqqiyotga to`sqinlik qiladi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Men jamiyatda korrupsiyani oldini olishda dinning to`g`ri targ`ib qilinishi katta ahamiyatga ega deb bilaman.

Dinning asosiy tamoyillari – halollik, adolat, poklik va mas`uliyat insonlarni axloqiy jihatdan mustahkamlaydi va nojo`ya ishlar, jumladan, poraxo`rlik va firibgarlikdan uzoq bo`lishga undaydi. Islom dini korrupsiyani qattiq qoralaydi va pora olish ham, berish ham katta gunoh ekanligini ta`kidlaydi. Shunday ekan biz diniy tarbiya orqali korrupsiyani oldini olish yo`llariga chora izlasak bo`ladi.

BIRINCHIDAN - Masjid va Islom markazlari faoliyatini kuchaytirish. Bunda asosan imomlar va diniy ulamolar korrupsiyaning gunoh ekanligi haqida ko`proq targ`ibot olib borushlari kerak. Jumladan- Juma namozlarida halollik va mas`uliyat haqida maruzalar qilishlari kerak.

IKKINCHIDAN - Oilada halol tarbiya berish, farzandlarni halol mehnat va poklikka o`rgatish. Ota-onalar bolalariga o`zlari yaxshi namuna bo`lishlari kerak.

UCHINCHIDAN - Ta`lim muassasalarida diniy-axloqiy tarbiya kuchaytirish – Maktab va universitetlarda axloqiy va diniy qadriyatlarni o`rgatish. Talabalarni halollik va mas`uliyatli bo`lishga targ`ib qilish.



TO`RTINCHIDAN - Davlat va xodimlar uchun diniy-etika kodeksini joriy qilish. Davlat xizmatchilariga diniy-axloqiy seminarlar o`tkazish. Xodimlarning halollik bo`yicha qasamyod qilish tizimini ishlab chiqish.

BESHINCHIDAN - OAV (ommaviy axborot vositalari) orqali diniy ma`rifatni kuchaytirish. Televizor, radio, internet orqali halollik haqida diniy va ijtimoiy dasturlarni ko`paytirish. Korrupsiyaning gunoh va zararli oqibatlarini tushuntiruvchi roliklar tayyorlash. Dinning to`g`ri targ`ib qilinishi odamlarning qalbida Allohdan qo`rqish hissini mustahkamlaydi, natijada ular gunoh va harom ishlardan tiyilishiga harakat qiladi. Agar jamiyat a`zolari dindan o`rganib halollik va adolat tamoyillariga amal qilsalar, korrupsiya va poraxo`rlik kamayadi, jamiyat rivojlanadi va baraka keladi. Har qanday jamiyatda korrupsiya jarayoni ko`p bo`lsa, oxir-oqibat o`sha davlat tanazzulga yuz tutadi. Agarda ta`lim jarayonida korrupsiya yuqori drajada rivojlanaversa, tabaqalanish yuzaga keladi va oxir- oqibat moddiy taraflama qiynalgan lekin ilmiy jihatdan, dunyoqarashi, fikrlash doirasi keng bo`lgan yosh avlodga qattiq zarba bo`ladi. Natijada o`sha davlatda ilmsizlik, tajribasizlik hukm suradi. Bunday davlatni „ zanglagan mexanizm” deb atasak ham bo`ladi. Ya`ni bunda poraxo`rlik va adolatsizlik sabab davlat tizimining samarasiz ishlashi tushuniladi.

O`zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ham korrupsiyaga oid jinoyatlar va ularning oqibatlarini to`g`risida batafsil ma`lumot beriladi.

Korrupsiyaga aloqador jinoyatlar quyidagi moddalarda ko`rsatilgan : 210- modda Pora olish, 211- moddada pora berish, 212- moddada esa Pora olish-berishda vositachilik qilish haqida aytiladi. Ushbu moddalarda poraxo`rlikning turli shakllari va ular uchun belgilangan jazo choralari bayon etilgan. Masalan, 210- moddada mansabdor shaxsning xizmat mavqeidan foydalanib, pora olishi jinoyat deb baholanadi va tegishli jazo choralari belgilangan. Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun qat`iy jazo choralari belgilangan. Chunonchi, 2021-yildan boshlab Jinoyat kodeksiga kiritilgan o`zgartirishlar bilan xizmat mavqeidan foydalanib firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirildi. Bundan tashqari 2022-yildan Jinoyat kodeksiga korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta`minlashga qaratilgan o`zgartirish va qo`shimchalar kiritildi. Ushbu choralar korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirishga va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan. Shuni ta`kidlash kerakki, yaqinda qabul



qilingan qonunlarga muvofiq, korrupsiyaga oid og`ir yoki o`ta og`ir jinoyatlar uchun javobgarlik choralari yanada kuchaytirildi. Masalan, bunday jinoyatlar uchun javobgarlikka tortish muddatining o`tib ketganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish yoki jazoni yengilrog`i bilan almashtirish kabi imtiyozlar qo`llanilmaydi. Bundan tashqari, pora olish, berish va pora olishda-berishda vositachilik qilish jinoyatlari uchun jazo choralari kuchaytirilib, og`irlashtiruvchi holatlarda 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanmoqda.

Xulosa

O`zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashishda qator huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirmoqda. Jinoyat kodeksida pora olish, pora berish, mansab vakolatini suiiste`mol qilish kabi jinoyatlar uchun 3 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan. Shuningdek, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jazoni yengillashtirish yoki javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatlari cheklangan. Shu bilan birga, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to`g`risida” gi qonun, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ning tashkil qilinishi va xalqaro hamkorlik ushbu kurash samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, korrupsiyani butunlay yo`q qilish uchun faqatgina jazolash yetarli emas. Oldini olish choralari- davlat boshqaruvida shaffoflikni ta`minlash, raqamlashtirish, fuqarolik nazoratini kuchaytirish va huquqiy ongni oshirish, shu bilan bir qatorda dinni to`g`ri targ`ib qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar tizimli amalga oshirilganda, korrupsiyaga qarshi kurash yanada samarali bo`ladi.

Research Science and Innovation House



Foydalanilgan adabiyotlat:

1. BMT korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003).
2. Korrupsiyaga qarshi kurash bo`yicha milliy qonunchilik hujjatlari.
3. Sh.M.Miromonovich “Yangi O`zbekiston strategiyasi” Toshkent(2001).
4. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning „Iymon” kitobi.
5. Imom G`azzoliy “Ihyou Ulum ad-Din”.
6. Abu Dovud va Termiziy hadis to`plamlari.



**Research Science and
Innovation House**

